

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9  
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## **Bosh muharrir:**

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

## **Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

## **Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

## **Ekspertlar kengashi:**

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari .....	11
<b>Mirjamilova Hulkar Nurali qizi</b> , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	15
<b>Alimov Murodkosim Achilovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili .....	20
<b>Umarov Faxriddin Umar o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati .....	26
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi .....	31
<b>Abduvakil Alimov Komil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna</b> , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	43
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari .....	46
<b>Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich</b> , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari .....	57
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish .....	62
<b>Olikulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li</b> , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
<b>Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ</b>	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi .....	73
<b>Usmonov Botir</b> , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish .....	78
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b> , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds .....	87
<b>Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev</b> , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies .....	92
<b>Shakhzod Saydullaev</b> , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi .....	101
<b>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich</b> , i. f. d. (DSc); <b>Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b> , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
<b>Eldor Uskanov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish .....	114
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich</b> , professor; <b>Elmurodov Faxriddin Farxodovich</b> , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari .....	120
<b>Ergashev Otamurod Toshtemirovich</b> , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar .....	125
<b>Ermatov Musojalil Komilovich</b> , kafedrasi dotsenti v. b.; <b>Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich</b> , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach .....	132
<b>Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich</b>	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
<b>Akobirova Nodira Najmuddin qizi</b> , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
<b>Alimova Guzal Alisherovna</b> , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari .....	146
<b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	152
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b> , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability .....	156
<b>Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna</b> , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
<b>Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
<b>Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept .....	175
<b>Otakulov Makhamadjon</b> , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari .....	181
<b>Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi</b>	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida .....	185
<b>Sadikova Ra'no Abdullayevna</b> , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish .....	188
<b>Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni .....	191
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
<b>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</b> , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari .....	203
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b> , dotsent; <b>Adilbekov Allayar Anvarbekovich</b> , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni .....	206
<b>Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
<b>Алиева Надирахон Абдумаликовна</b> , PhD. доц.; <b>Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи</b> , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
<b>Z. G. Allaberganov</b> , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
<b>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</b> , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
<b>Axmedova Yulduz Sunatullayevna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari .....	232
<b>Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna</b> , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 <b>Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 <b>Berdiev Akram O'ktamovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi .....253 <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari .....258 <b>Botirov Erkinjon Xayitovich</b> , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .....263 <b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....269 <b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 <b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 <b>Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....284 <b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar .....288 <b>Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna</b> , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari .....292 <b>Mamirjon Jalollidinov</b> , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала .....297 <b>Муминов Шохжакон Суюнович</b> , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана .....302 <b>Муяддинов Махмуд Жалелович</b> , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 <b>Назарова Гузал Баходировна</b>	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 <b>Nozima Abdullayeva</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 <b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 <b>Тажимуратов Умид Рузматович</b> , <b>Бахриев Иброхим Исометдинович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Жуманиёзов Эркин Худойберганович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Тажимуратов Рузмат Отажанович</b> , кандидат медицинских наук, <b>Тажимуратов Абдусами Умид угли</b> , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili .....333 <b>Temirov Abdulaziz Alimjanovich</b> , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 <b>Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 <b>Tosheva Ziroat Aliqul qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .....	349
<b>To'rayeva Nafisa Odilovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
<b>Tursun Muxitovich Ahmedov</b> , i. ф. д., prof.; <b>Gavhar Rustamovna Xidirova</b> , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike .....	359
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b> , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
<b>Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich</b> , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
<b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....	385
<b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....	391
<b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
<b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
<b>Хилола Икрамова Ровшан кизи</b> , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....	407
<b>Bekdavlat Aliyev</b>	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	412
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .....	416
<b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
<b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .....	431
<b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....	440
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari .....	446
<b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
<b>Axmedov Sayfullu Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
<b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>	



# MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI

**Botirov Erkinjon Xayitovich**  
TMI, "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Yashil o'sish va barqaror rivojlanish konsepsiysi global mafkuraga aylanishi, milliy iqtisodiyotda tub islohotlarni amalga oshirish va maqsadni aniqlash, asosiy e'tiborni operatsion samaradorlikni miqdoriy baholashga o'tkazishni zarurat qilib qo'ymoqda. Ratsionallik barqaror yashil o'sishning asosiy va hal qiluvchi omiliga aylanadi, bu esa ushbu o'sishni ta'minlaydigan moliyaviy modelni o'zgartirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda eng dolzarb barqaror o'sishni ta'minlash masalasi moliya tizimini o'zgartirish va tamoyillar asosida yangi moliyaviy paradigmani shakllantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, yashil moliya, mas'uliyatli investitsiyalar, ijtimoiy biznes mas'uliyati, barqaror iqtisodiyotning moliyaviy modeli, yashil o'sish.

**Abstract:** The concept of green growth and sustainable development has become a global ideology, it is necessary to implement fundamental reforms in the national economy and, having defined the goal, shift the focus to quantifying operational efficiency. Sustainability is becoming a key and decisive factor for sustainable green growth, which requires a change in the financial model that enables this growth. In this regard, today the most pressing issue of ensuring sustainable growth is changing the financial system and forming a new financial paradigm based on principles.

**Key words:** sustainable development, green finance, responsible investment, social responsibility of business, financial model of a sustainable economy, green growth.

**Аннотация:** Концепция зеленого роста и устойчивого развития стала глобальной идеологией, необходимо осуществить фундаментальные реформы в национальной экономике и, определив цель, переместить основное внимание на количественную оценку операционной эффективности. Рациональность становится ключевым и решающим фактором устойчивого зеленого роста, что требует изменения финансовой модели, обеспечивающей этот рост. В связи с этим сегодня наиболее актуальным вопросом обеспечения устойчивого роста является изменение финансовой системы и формирование новой финансовой парадигмы, основанной на принципах.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, зеленые финансы, ответственное инвестирование, социальная ответственность бизнеса, финансовая модель устойчивой экономики, зеленый рост.

## KIRISH

Yaqin 10–20 yil ichida suv tanqisligi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun keng tarqalgan muammolardan biriga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, O'zbekiston qishloq xo'jaligi suv resurslarining eng yirik iste'molchisi hisoblanadi. Mutaxassislar mamlakatning "yashil rivojlanishi" ni hozirgi vaziyatdan chiqish yo'li deb atashadi.

Prognozlarga ko'ra, kelgusi 50 yil ichida Markaziy Osiyoda daryo oqimining pasayishi taxminan 20% ni tashkil etadi, bu mintaqadagi suv resurslarini boshqarishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, O'zbekiston sun'iy sug'orishga asoslangan qishloq xo'jaligiga ega bo'lishdan tashqari, mintaqada aholi eng zich joylashgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyoning asosiy suvdan foydalanuvchilaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, kela-jakda O'zbekiston uchun suv tanqisligi mintaqadagi eng keskin holatga aylanishi mumkin.

Global miqyosda yashil moliyalashtirishni amalga oshirish qariyb 20 yildan buyon rivojlanib kelmoqda bu esa arzon va muqobil energiya, toza shaharlar, aholi punktlari barqarorligi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam bermoqda.



Yashil moliyalashtirish – bu atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilan bog'liq loyihalarni yo'lga qo'yish jarayoni bo'lib, har bir mintaqaning iqlimiga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligi uchun yashil moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash eng dolzarb muammolardan biridir. Bundan tashqari, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish mexanizmini qo'llab-quvvatlashga doir loyihalarni amalga oshiruvchi mutaxassis-kadrlarni, asosiyisi, ushbu sohadagi loyihalarni moliyalashtiruvchi O'zbekiston bank tizimi vakillarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrda "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-sonli qarori qabul qilindi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) yurtimizda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishni va rag'batlantirishni, xususan, iqlim sharoitini hisobga olgan holda ekologik toza qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Iqlimga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligi – bu barqaror dehqonchilik amaliyotini rivojlantirishga, uning iqlim o'zgarishiga qarshi turish qobiliyatiga va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga yordam beradigan kompleks yondashuvdir.

Moliyalashtirish tashabbuslari iqlimga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligini, shu jumladan, meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tabiiy resurslardan oqilonqa foydalanish va meva-sabzavotchilik klasterlarining barqaror usullariga alohida e'tibor qaratish orqali biz iqlimga maqbullashtirilgan meva-sabzavotchilik sohasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun ichki va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishimiz mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyoning turli mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyot modelining mohiyati, rivojlanish tarixi, shakllanish xususiyatlari tadqiqotchi-olimlar R. Zimmerman, R. Brenner, J. L. Abella<sup>[1]</sup>, A. V. Glotko, V. S. Balabanov<sup>[2]</sup>, A. Korppoo, N. Tynkkynen<sup>[4]</sup>, M. Kobzev, T. Xussejn<sup>[9]</sup>lar tomonidan o'rganilgan.

Yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlarini, barqaror rivojlanishi, shuningdek, mintaqalarning agrosanoat majmuasida "yashil" kompetensiyalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda rossiyalik olimlardan O. S. Akupiyan, I. A. Demesheva, D. P. Kravchenko, L. A. Molchanova<sup>[3]</sup>, A. E. Dvoretskaya<sup>[5]</sup>, S. I. Mishulina<sup>[6]</sup>, B. N. Porfirev<sup>[7]</sup>, Y. A. Borkova<sup>[8]</sup>, L. A. Molchanova, M. S. Malix<sup>[10]</sup> va boshqalar salmoqligissa qo'shgan.

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan bog'liq masalalarni o'rganishda aniq yutuqlarga erishilganligiga qaramay, uni amalga oshirish muammolarini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda."Yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish masalalari iqtisodiyot, mahalliy sanoatning ayrim sohalarida, xususan, agrosanoat majmuasi va uning tarmoq tuzilmasiga ta'siri ochiqligicha qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy nazariy va empirik usullar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi sohasida "yashil" iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi statistik va moliyaviy ma'lumotlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida mantiqiy va tarixiy, qiyosiy tahlil, ekspert baholash va tizim-tizimli yondashuv, sintez va mantiqiy modellashtirish usullari qo'llanilgan.

Ilmiy tadqiqotning uslubiy asosi bo'lib ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning rivojlanishidagi o'zaro bog'liqlik va aloqalar, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarini yechmini topish imkonini beruvchi tizimli, mantiqiy, qiyosiy va matematik iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan va o'rganib chiqilgan.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishining sayyoraviy jarayonlari, biologik xilma-xillikni yo'qotish tezligi va azotning to'liq tiklaniishi allaqachon o'z chegaralaridan oshib ketgan, ayni paytda global chuchuk suvdan foydalanish, biosferada fosfor aylanishi, yerdan foydalanishning o'zgarishi va suv zaxiralarining kislotalanishi o'z chegaralariga yetib bormoqda, chunki biz kutilayotgan aholi soni (2050-yilga borib, 9 milliard kishi) uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashimiz kerak bo'ladi. Ushbu muammoni hal etish uchun dunyoda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini barqaror rivojlanishini ta'minlashda energiya resurslaridan oqilonqa foydalanish, chiqindilarni yangi texnologiyalarga asoslanib qayta ishlashni amalga oshirish maqsadida an'anaviy biznes modeliga (shu jumladan, global qishloq xo'jaligi uchun) alternativ shaklda "yashil iqtisodiyot" ishlab chiqilgan.

Aytish mumkinki, beqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida insonning mas'uliyatlari munosabati muammosi tabiatda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning turli sohalaridagi korxonalar o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida tabiatdan cheklangan resurslarni olib, atrof-muhitni ifloslantirmoqda. Atrof-muhit normalari va tabiat qonunlariga



e'tibor bermaslik biznes yuritishning umume'tirof etilgan axloqiy tamoyillariga asoslangan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini imkonsiz qiladi.

So'nggi yillarda biznesning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish korxona rivojlanishining dolzarb yo'nalishi bo'lib, u quyidagi qator omillar ta'sirida rivojlanmoqda:

- globalashuv jarayonlarining rivojlanishi;
- kompaniyalarning shaffofligini mustahkamlash;
- korporatsiyalarning raqobatbardoshligini oshirish, integratsiya jarayonlarini kuchaytirish va tashqi muhit va potensial strategik investorlarning ehtiyojlariga moslashish.

FAO ning yangi loyihasi "O'zbekiston–2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojllantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirishga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli, shuningdek, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq mavjud muammolarni hisobga olgan holda iqlimga moslashtirilgan meva-sabzavotchilik klasterlarini moliyalashtirish usuli va siyosati muhim ahamiyatga ega.

Yashil moliyalashtirishning mavjud mexanizmlarining tahlili, iqlimga maqbullashtirilgan meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlanish uchun moliyalashtirish modellarini ishlab chiqishga innovatsion yondashuvlar alohida o'rın egallaydi.

Bundan tashqari, meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirish vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishdan manfaatdor tashkilotlarni shakllantirish zarur.

Meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojllantirishning yashil yo'li ushbu muammolarga javoban atrof-muhitni saqlash va yaxshilashni, hosildorlik, bandlik va rentabellikni oshirish bilan birlashtirish uchun xizmat qiladi. Bu tashkiliy-iqtisodiy jarayon yashil qishloq xo'jaligining quyidagi asosiy oltita tamoyiliga asoslanadi:

- Teskari yer degradatsiyasi. Bunga erishish uchun ishlov berishni minimallashtiradigan, uning namligi va organik moddalarini saqlaydigan qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan foydalanish kerak. Bu, o'z navbatida, tuproq eroziyasi va degradatsiyasining oldini olishga olib keladi. Misol uchun, xususan, tuproqni "nol ishlov berish" texnologiyasi, diversifikatsiyalangan almashlab ekish.
- Yaylovlarda o'tlashni to'xtatish, uni nazorat qilish, buning uchun samarali chorvachilik texnologiyalarini joriy etish zarur. Bu yaylovlarni tiklashga, ya'ni ularni saqlab qolishga imkon beradi, bu nafaqat bir xil chorvachilik uchun, balki umuman ekotizimni saqlab qolish uchun juda muhimdir.
- Suv resurslaridan samarali foydalanish. Qishloq xo'jaligida bo'lgani singari, meva-sabzavotchilik klasterlar faoliyatida ham allaqachon taniqli texnologiyalar: tomchilatib sug'orish, sepish, diskret sug'orish, issiqxonalardan foydalanib kelinmoqda. Nafaqat ularni tajriba asosida qo'llash, balki ularni majburiy ravishda keng joriy etish va ulardan foydalanish O'zbekiston uchun juda muhim bo'lgan suvni tejashga ham, meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlanishiga ham ulkan samara beradi.
- Tuproq, suv, havoning ifloslanishini oldini olish uchun ekologik toza agrokimyoviy moddalar va yoqilg'idan foydalanish, ular o'zları uchun ham, kelajak avlodlar uchun ham himoya qilinishi kerak.
- Qishloq xo'jaligi sektori chiqindilarini iloji boricha qayta ishlash. Bu, xususan, kompost, biologik gaz va boshqalar kabi ishlab chiqarish obyektlarida qoldiq chiqindilarni qayta ishlatish orqali amalga oshirilishi mumkin.
- Atrof – muhitni biologik tozalashga yordam beradigan, masalan, qurg'oqchilikka va tuzga chidamli ekinlarni ekish. Xususan, karbonat angidridni ko'p yillik ekinlar, mevali daraxt ekinlari ushlab turishi mumkin, ular ham tuproqning sho'rланishiga chidamli. Bunday ekinlardan foydalanishning kengayishi iqlim o'zgarishiga moslashish uchun ham keng imkoniyatlар yaratadi.

Fermerlarni ushbu chora-tadbirlarni faol amalga oshirishga undash va ularni samarali qo'llashga o'rgatish uchun qishloq xo'jaligida islohotlarni jahon agrar bozori talabalaridan kelib chiqib, yo'nga qo'yish zarur. Shu jumladan, paxta va bug'doy ekiladigan maydonlarni qisqartirish va ularning hosildorligini oshirishga qaratilgan choralarни kengaytirish bilan birga, meva-sabzavotchilik klasterlar yashil texnologiyalar va ularni yetkazib beruvchilarni tanlashda erkinlikka ega bo'lishlari kerak, bu jarayonga mahalliy hokimiyat organlarining aralashuvini kamaytirish kerak.

Xususan, yaqinda mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan qishloq xo'jaligi bilimlari va innovatsiyalari tizimi (AKIS) fermerlarning xabardorligi va malakasini oshirishga yordam beradi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat. Bunga texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlanishga orqali erishiladi.

Strategiyani amalga oshirish natijasida issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari 2010-yildagiga nisbatan 10 foizga qisqartiriladi.

Shuningdek, 100 foizgacha aholi va iqtisodiyot tarmoqlari zamonaviy arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, ekologik jihatdan yaxshilangan motor yoqilg'isi va avtomobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlaniriladi.



Yaqin o'n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti, shu jumladan, qishloq xo'jaligining "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishi ko'pgina bonuslar olib keladi. Ma'lumki, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko'paymoqda. Bunday sharoitda, energetika resurslariga bo'lgan talab ham ortib boradi. "Yashil iqtisodiyot"ning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish bo'lib hisoblanadi. Bu jihatdan O'zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institatlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko'p. Shu bilan birgalikda, "yashil energetika" sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O'zbekistonda yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko'paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyot uchun mislsiz foydadir.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko'mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo'qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag'ni talab qiladi. Buning o'rniha ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan "yashil energetika"ga o'tish qator afzalliklarga ega. Hozirgi globallashuv sharoitida butun dunyo shu yo'lni tanlamoqda. Mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib mazkur harakatga qo'shildi. To'rt yil avval qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi" yurtimizning "yashil taraqqiyot" sari boshladi.

Albatta, "yashil iqtisodiyot" faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o'rmon hududlarini kengaytirish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kirib ketadi.

"Yashil iqtisodiyot"ning ijtimoiy ahamiyati ham shundan iboratki, uning joriy etilishidan davlat yoki biznes emas, balki, eng avvalo, butun xalq, qolaversa, oddiy odamlar foyda ko'radi.

Jahon tajribasidan ma'lum bo'lishicha, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida "yashil texnologiyalar"ni joriy etish aholining yashash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida shaharlardagi hayot qulaylashadi, bolalar o'limi qisqaradi, o'tacha umr ko'rish davomiyligi uzayadi va hokazo. Lotin Amerikasi va Afrikaning ayrim mintaqalarida esa hatto tashqi migrantsiya oqimlari qisqarib, inson kapitalining rivojlanishi kuzatilgan.

Avvalambor, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda davlat qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqchi ekanini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Chunki dastlabki bosqichda iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritishga to'g'ri keladi. Bunday yukni davlat byudjeti ko'tarolmaydi, ehtimol, xalqaro donor tashkilotlarga murojaat qilinar. U holda tashqi ko'mak qanday shartlarda taqdim etiladi? Muhimi, mahalliy benefitsiarlar – aholi, tadbirkorlik va xo'jalik subyektlari uni qay shaklda olishi mumkin? Biznesda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida ishslash uchun rag'bat va motivatsiya uyg'otilmasa, davlatning barcha sa'y-harakatlari zoye ketishi mumkin.

Odatda korxona va tashkilotlar, aholining turli qatlamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida uglerod sarfini kamaytirish, "yashil texnologiyalar"ni qo'llash va tegishli asbob-uskunalar xarid qilish uchun imtiyozli yoki foizsiz kreditlar, subsidiya hamda grantlar, soliq imtiyozlari taqdim etiladi. O'z navbatida, bunga bank-moliya tizimi ham xayrixohlik ko'rsatishi, banklar BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq biznes-loyihalarga alohida e'tibor qaratishi juda muhim.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy ko'mak instrumentlari, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi, shu jumladan, meva-sabzavotchilik klasterlarida tafbiq etilsa maqsadga muvofiqdir. Sababi mamlakatimiz qishloq hududlarida faoliyat olib borayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarimiz bozor kon'yukturasidagi har qanday o'zgarishga niyoyatda sezgir bo'lib, yangi raqobat muhitiga moslasha olmasligi mumkin. Yirik korxonalarda esa "himoya yostiqchasi" mavjud. Shu bois ba'zi kompaniyalar "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda iqtisodiy tomonidan qiynal-maydi. Qolaversa, mahsulot yoki xizmatlar turini diversifikatsiyalash hisobiga ehtimolli risklarni minimallashtirishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini belgilab olish dolzarb masalalardan birdir. Fikrimizcha, dastlabki bosqichda qishloq xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatish sohalariga investitsiya kiritish maqsadga muvofiq. Bir so'z bilan aytganda, davlat miqyosida qaysi sohani, qachon va qanday qilib "yashil iqtisodiyot"ga o'tkazish yuzasidan maqsadli yo'l xaritasini tuzib olishi zarur.

Xalqaro moliya institatlari tomonidan qishloq xo'jaligi tarmog'ida, shu jumladan, meva-sabzavotchilik klasterlarida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlanayotgani nafaqat ularning rivojlanishi, balki atmosfera havosiga tashlanayotgan issiqxona gazlarining miqdorini kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ekologik toza energiya va resurs yechimlarini ilgari surish Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O'zbekistondagi faoliyatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan birdir.



YTTB korxonalarning energiya tejash salohiyatini ro'yobga chiqarishga va energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki xususiy sektor bilan hamkorlikka urg'u bergen holda, loyihalarga sarmoya kiritadi, davlat siyosati bo'yicha muloqot olib boradi va ularga texnik yordam ko'rsatadi. O'zbekistondagi agrobiznes subyektlari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmidan (GEFF) foydalanish orqali energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritishlari mumkin. Ushbu imtiyoz doirasida YTTB O'zbekistondagi hamkor banklar orqali kichik va o'rta biznes korxonalarini va korporatsiyalarga issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradigan yashil texnologiyalarga, shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashish va ta'sirlarni yumshatish texnologiyalariga sarmoya kiritish uchun kreditlar ajratadi.

ATB Ipak yo'li bank, ATB Hamkorbank, ATB Sanoatqurilishbanklar YTTBning birinchi mahalliy hamkorlari bo'lib, ular xususiy kompaniyalarni kreditlash uchun umumiy qiymati 60 million dollarlik yashil kredit liniyalarini qo'lga kiritgan. Kreditlar issiqlik izolyatsiyasi, fotoelektr quyosh panellari, geotermal issiqlik nasoslari va suvni tejaydigan sug'orish tizimlari kabi yashil texnologiyalarga investitsiyalarni qoplaydi. Korxonalar va hamkor banklar YTTB ning Yashil texnologiyalar selektori yordamida tasdiqlangan energiya tejamkor yechimlarni topishlari mumkin.

YTTB O'zbekiston iqtisodiyotiga 121 ta loyiha doirasida 3,8 milliard yevro investitsiya kiritdi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi o'ttasida "Agro-oziq-ovqat sektorida yashil iqtisodiyotga inklyuziv o'tishni qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligida bilimlar va innovatsiyalarning iqlimga moslashgan tizimini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirmoqdalar.

Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotiga ko'ra, loyiha byudjeti 4 150 000 yevroni tashkil etadi, amalga oshirish muddati esa 2025 yil 30 sentyabrgacha etib belgilangan.

Yangi loyiha oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sektorida "yashil iqtisodiyot"ga inklyuziv o'tish va qishloq xo'jaligida bilimlar va innovatsiyalarning "iqlimga optimal moslashgan" tizimi (UAKIS)ni joriy etishga hissa qoshadi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonni yashil iqtisodiyotga aylantirishga yordam berish uchun iqlimdan xabardorlikni oshirish, yashil davlat investitsiyalarini rejalashtirish bo'yicha institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish va yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishni taklif qilgan. Bu esa, davlat-xususiy sheriklik va kredit kafolatlarini kengaytirish qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish va boshqa muhim infratuzilmaga xususiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zimmerman, R., Brenner, R., Abella, J. L. (2019). Green infrastructure financing as an imperative to achieve green goals, Climate, vol. 7, no. 3, p. 39–52. doi: 10.3390/cli7030.
2. Glotko, A. V., Balabanov, V. S. (2021). Mechanisms for implementing a green economy model in a region's agroindustrial sector. Iranian journal of ichthyology. 8(Special Issue 1): 92–101.
3. Акупиян О. С., Демешева И. А., Кравченко Д. П., Молчанова Л. А. и др. Инновационное развитие предприятий агропромышленного сектора// Коллективная монография: Изд-во Белгородский ГАУ им. В. Я. Горина. 2021. – 260 с.
4. Korppoo, A., Tynkkynen, N. (2022). Conceptualizing "Green economy" in Russian academic debate. Eurasian geography and economics: 1–23.
5. Дворецкая А. Е. Зеленое финансирование как современный тренд глобальной экономики/А. Е. Дворецкая// Вестник Академии. –2017. –№2. –С. 60-65.
6. Мишулина С. И. "Зеленые" инвестиции как элемент механизма экологизации региональной экономики / С. И. Мишулина // Sochi Journal of Economy. –2019. – Т. 13. – № 2. – С. 155–164.
7. Порфириев Б. Н. Зеленая экономика и зеленые финансы / Б. Н. Порфириев // Учебное пособие. Международный банковский институт. – Санкт-Петербург, 2018. – 412 с.
8. Боркова Е. А. Политика стимулирования зеленого инвестирования как направление регулирования рынка зеленого финансирования / Е. А. Боркова // Управленческое консультирование. – 2020. – № 5. – С. 68–76. – URL: <https://doi.org/10.22394/1726-1139-2020-5-68-76> (дата обращения: 01. 03. 2021).
9. Kobzev M., Xussejn T. "Zelenoe" finansirovanie: status pravovogo regulirovaniya i mezhdunarodnoj praktiki, Neft, gaz i pravo, 2017, no. 6. – pp. 45–50.
10. Молчанова Л. А., Малых М. С. Совершенствование методических основ аналитической поддержки инновационного развития предприятий аграрной сферы // Конкурентоспособность в глобальном мире: экономика, наука, технологии. 2017. №9-6 (56). – С. 68–71.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.